

SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH

U.Y. Axmedova

FarDU Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish, boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etilishi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishdan maqsad.

Kalit so'zlar: Dars, ta'lim, sinfdan tashqari ishlar, metod, shakl, vosita.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается организация внеклассной деятельности, значение внеклассной деятельности в начальных классах. Организация внеклассной деятельности. Цель организации внеклассной деятельности.

Ключевые слова: Урок, обучение, внеклассная деятельность, метод, форма, инструмент.

ABSTRACT

In this article, the organization of extracurricular activities, the importance of extracurricular activities in primary grades. Organization of extracurricular activities. The purpose of organizing extracurricular activities.

Keywords: Lesson, education, extracurricular activities, method, form, tool.

Sinfdan tashqari ishlar — umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari

(o'quvchilarning turli to'garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug'ullanishi)ni ko'rsatish mumkin

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomda ta'kidlanganidek: "Boshlang'ich ta'lim sanash, o'qish va yozish, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini-o'zi nazorat uquvi, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarsi, xulq-atvor insonlar bilan muomala madaniyatini egallashi uchun asos bo'ladi.

Sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra ta'limning 2 ta asosiy bosqichidan iborat: 1-bosqichda o'qish doirasi o'qitiladigan kitoblar, mavzular va ularni qanday tartibda o'qitish haqida ko'rsatmalar beriladi. 2-bosqichda shu o'quv materiallari, mavzular asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Matematik o'yinlar va boshqotirmalarning quyidagi mashg'ulotlar asosida amalga oshiriladi: Matematik to'garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish. Matematikadan fakultativ mashg'ulotlar deganda o'quvchilar darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi.

Matematik o'yinlar va boshqotirmalar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlari:

1. O'z mazmuni bo'yicha fan dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bo'lishi kerak.

2. Fanga oid o'yinlar va boshqotirmalar barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.

3. Matematik o'yinlar va boshqotirmalar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

4. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10–12 minutdan 1 soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

5. Fanga oid o'yinlar va boshqotirmalar mazmuni va shakllarining turli-tumanligi. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- v) duradgorlik to'garaklari;

- g) sport to‘garagi;
- d) badiiy havaskorlik to‘garagi.

Tarbiyachilar, sinf rahbarlarining sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

1. Og‘zaki ish usullari. Turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig‘inlar, ma‘ruzalar, kitobxonlar konferentsiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, og‘zaki gazetalar, radiojurnallar.

2. Amaliy ish olib borish usullari, turli joylarga sayyohatlar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish faoliyati, yosh tabiatshunoslar to‘garaklari, shanbaliklar.

3. Ko‘rgazmali ish usullari. Maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko‘rgazmalari.

Devoriy gazeta. Qiziqarli tarixiy hikoyalar, olimlarning ijodi va hayotidan yangiliklar. O‘quvchilarning dunyoqarashini shakl-lantirishga erishish. Devoriy gazeta uchun material to‘plash. Devoriy gazetalarini chiqarish va tarixiy materiallarni o‘rganish.

Ekskursiyalar. Tarixiy muzeylarga sayohatlarga olib borish. Milliy grafika, Geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ekskursiya jarayonida tarixiy materiallar bilan tanishtirish. Matematikadan yangi bilimlarga ega bo‘lish.

XULOSA

Maktab o‘quvchilarining maktabda rejada berilgan darslardan tashqari darsdan, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning o‘rni yuqori hisoblanadi. Bu sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning bilim darajasiga qrab belgilanadi. Misol uchun fan bo‘yicha to‘garaklar past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun alohida yuqori o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun alohida reja asosida olib boriladi. Bu esa o‘quvchilarning yaxshiroq bilim egallashlari uchun turtki vazifasini bajadi. Fan dpirasida fikrlashi kengayadi, qiziqishi ortadi, muloxaza yurita olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Ta‘lim tizimimizning rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. O‘quvchilar maktabda o‘rganishi lozim bo‘lgan hamma narsani to‘liq o‘zlashtira oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY.(2022). Critical Thinking in Assessing Students. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 267-271.
2. Ahmedova, U. Y. Q., & Axmedova, M. U. B. Q. (2021). Vatanim Surati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 877-883.
3. Axmedova, U. (2022). On Certain Conditions Of Striking Coefficients Of Fourier Series To Zero. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 3(3), 3-8.

4. Axmedov, O. U. B. O. G., & Qizi, A. U. Y. (2022). STEREOMETRIYA BO'LIMI VA UNING BA'ZI AKSIOMALARIDAN KELIB CHIQUADIGAN NATIJALAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 127-133.
5. Axmedova, Umidaxon Yodgorjon Qizi (2023). O'QUVCHILARNING FAOLLIK DARAJASIGA KO'RA FARQLANUVCHI METODLAR, O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (4), 336-343.
6. Qizi, D. M. S., & Qizi, R. G. X. (2022). METHODS OF STUDYING ADDITION AND SUBTRACTION OF TWO-DIGIT NUMBERS IN ELEMENTARY SCHOOL. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 61-67.
7. Dehqonova, Mahliyo Shuhrat Qizi, & Axmedova, Umida Yodgorjon Qizi (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA ULARNING TAFAKKURI, QOBILİYATI VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISH.. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (4-2), 251-256.
8. Dehqonova, Mahliyo Shuhrat Qizi (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA MATEMATIKANI UYG'UNLASHTIRISHIDA AN'ANAVIY VA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (4), 879-886.
9. Dehqonova, O., & Yusupova, F. (2019). The use of interactive methods to increase the efficiency of studying physics in secondary school. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 20-23.
10. Axmedova, U. Y. (2023). MATEMATIK MULOHAZA YURITISH VA MASALALAR YECHISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 296-300.
11. Axmedova, U. Y. (2023). O'QUVCHILARDA MATEMATIKA FANI ASOSIDA BARCHA FANLAR ORQALI MATEMATIK SAVODXONLIK. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 377-381.